# 7-SINF “ONA TILI” DARSLIGINING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI VA DTS TALABLARI

***To’xtayeva Nilufar Rasul qizi***
*SamDU Kattaqo’rg’on filiali Pedagogika va tillarni o’qitish fakulteti*
*Filologiya va tillarni o’qitish o’zbek tili yo’nalishi talabasi*
***Nurullayeva Sabinabonu Rabbim qizi***
*SamDU Kattaqo’rg’on filiali Pedagogika va tillarni o’qitish fakulteti*
*Filologiya va tillarni o’qitish o’zbek tili yo’nalishi talabasi*

**Annotatsiya:**Mazkur maqolada 7-sinf “onatili” (I.Azimova,K.Mavlonova,S.Quronov, Sh.Tursun,N.Hakimova, M.Siddiqov )Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.To‘la yangilangan 5-nashri. Toshkent-2022. – 224-b.)darsligida keltirilgan mavzularni, mashqlarni va grammatik qoidalarni tahlil qilamiz hamda ushbu darslikning yutuq va kamchiliklarni aniqlaymiz hamda DTS talablari bilan tanishamiz.
**Kalit so’zlar:** 7-sinf “ona tili” darsligi, DTS(davlat ta’lim standartlari), til kompitensiyalar(o’qib tushunish, tinglab tushunish, eshitib tushunish va yozib tushunish).
**Annotation:** in this article 7th grade “mother tongue”(I.Azamova,K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun,N.Hakimova,M.Siddiqov) (Mother tongue. Textbook for the 7th grade of general secondary schools.Fully updated 7th edition. Tashkent-2022. – 224 b.)we will analyze the topics, exercises and grammatical rules presented in the textbook and determine the achievements and shortcomings of this textbook and get acquainted with the requirements of the DTS.
**Keywords:** 7th grade textbook” mother tongue", DTS(state educational standards), language competencies(reading, reading, listening, listening, understanding and writing understanding).
**Аннотация:** в данной статье 7 класс “Родной язык” (И.Азамова, К.Мавлонова, С.Куронов, Ш.Турсун, Н.Хакимова, М.Сиддиков) (Родной язык. Учебник для 7-го класса общеобразовательных школ.Полностью обновленное 7-е издание. Ташкент-2022. – 224 с.) мы проанализируем темы, упражнения и грамматические правила, представленные в учебнике, и определим достижения и недостатки этого учебника, а также ознакомимся с требованиями DTS.
**Ключевые слова:**учебникдля 7 класса”Роднойязык", DTS (государственные образовательные стандарты), языковые компетенции (чтение, вычитка, аудирование, понимание на слух и понимание письменной речи).

Umumiy o‘rta ta’lim standarti 1998-yilda qabul qilingan edi, bu davrdan keying o‘zgarishlar va jahon ta’lim standartlari tajribalari asosida 2017-yil yangi standartlar ishlab chiqildi. 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori e’lon qilindi. Davlat ta’lim standarti. Ta’lim mazmunining rivojlanishida ko‘zga tashlanayotgan zamonaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosidayagonaqoidalarvatalablaro‘rnatilishi) hisoblanadi.[5]
Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

1)turli ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta’minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi; 2)O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida

xalqaro ta’lim amaliyotida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi mazmunini rivojlanishi tendensiyalarining hisobga olinishi.

Davlat ta’lim standarti:

1)ta’lim olish shaklidan qat’iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo‘lgan ta’lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o‘quv fani bo‘ycha yakuniy ta’limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3)ta’lim dasturlari mazmunining minimumi, o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘quvishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo‘yiluvchi talablarni belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlari tarkibiy tuzilishiga ko‘ra quyidagilardan iboratdir:

1.Ta’limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o‘rganish ob’ektlari va asosiy mazmunli yo‘nalishlari ko‘zda tutiladigan o‘quv fanining umumiy ta’rifi.

2. O‘quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash.
3.Ta’limning majburiy natijalarini ifodalash, ya’ni o‘quvchilarning o‘quv tayyorgarliklari zarur bo‘lgan minimal darajasiga talablar.
4.Bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining o‘lchamidir, ya’ni, tekshirishishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o‘quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo‘ladi. [4; 28]
O‘quv rejasi - davlat hujjatidir. Unga barcha umum ta’lim maktablari so‘zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o‘quv rejasi hisoblanib, u xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o‘quv rejasi - shu fanni o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatlaridir. O‘quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi. O‘quv tarbiya ishining maqsadi, o‘quvchilarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko‘nikmaga aylantirib, uni hayotda qo‘llay olishga o‘rgatish.

O‘quv dasturi - har bir alohida fan uchun tuziladi. Dastur o‘quv rejasiga asoslanadi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi, ikkinchi mavzu birinchisini to‘ldirishi, izchilligi bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko‘rsatiladi. O‘quv dasturida mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi. Fanning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda yo‘nalishlari ajratiladi. Ular boblarga bo‘linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo‘linadi va o‘quvchilarga tushuntiriladi. O‘quv dasturining o‘zini amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalari mavjud.

Darslik.Darslik o‘quv jarayonining asosi. O‘quvchining uydagi muallimi, yordamchisi. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi.

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak.
2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariya asosi, g‘oyalari tizimli va izchil bo‘lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo‘lishi lozim.
3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

4.Darslikda mavzu sodda ravon tilda yozilishi hamda tegishli qoida va ta’riflar berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi o‘quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo‘lishi kerak.
5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo‘lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

O‘quv predmetlari. Har bir o‘quv predmetida o‘ziga oid fanning umumiy asoslari beriladi. Fan va o‘quv predmeti bir-biridan quyidagi belgilariga ko‘ra farq qiladi:
Birinchidan, fan hajm va mazmun jihatidan keng bo‘lib, unda shu fanga oid g‘oyalar, qarashlar, bilimlar, tushunchalarning barchasi o‘z aksini topadi. O‘quv predmeti hajmi nisbatan tor bo‘lib, unda bolalarning hayotiy tajribalari, real imkoniyatlariga mos keladigan bilimlarn o‘rgatish ko‘zda tutiladi.
Ikkinchidan, fan hamma uchun yosh-u qari, o‘zbek-u qozoqqa bir xil xizmat qiladi.
Uchinchidan, fan va o‘quv predmetining faqat o‘zigagina xos vositalari mavjud.

To‘rtinchidan, fan o‘zini-o‘zi rivojlantiradi. O‘quv predmetlari esa yoshlarni ma’lumotli qiladi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi. Lekin farqlariga qaramasdan ular o‘zaro uzviy bog‘langan. Fan rivojlangan sari o‘quv predmetlari sayqallashib, takomillashib boradi. [4; 28]

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Ona tili ta’limining maqsadi o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan,kitobxonlik madaniyati shakllangan ,mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan,o‘zgalar fikrini anglaydigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda ona tili ta’limining mazmuni o‘zgarmoqda. Biz yillar davomida ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarga grammatik qonun qoidalarni,nazariy bilimlarni o‘rgatib keldik.Endilikda grammatikadan ko‘ra o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz lozim. Shunday ekan, bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish,gapirish,o‘qish,yozish)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchida bunga nisbatan ko‘nikma shakllantirish darkor. [2; 3]

7-sinf "ona tili". Ona tili (Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa`dullo Quronov ,Shokir Tursun ,Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov;. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent- 2022. – 224 b.)

«Milliy o‘zligimizning timsoli bo‘lgan, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, oilamizda ham chet tilini bilish albatta kerak, bu ham hozir zamon talabi. **Lekin ona tilini bilishga majbur qilishimiz kerak. Majbur!**», — dedi prezident. [Shavkat Mirziyoyev 20 dekabr, seshanba kuni mamlakat parlamentiga yo‘llagan Murojatnomasidan]

Inson uchun kindik qoni tomgan Vatani,dunyoga keltirib voyaga yetkazgan ota onasi qanchalik aziz va mukarram bo‘lsa, uning o‘zligi va ma’naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadrli va mo‘’tabardir.

Qadim turkiy tilimizni ilk bor ilmiy asosda tadqiq etgan buyuk alloma Mahmud Koshg‘ariyning: «Erdam boshi tildur», ya’ni «Barcha ezguliklar tildan boshlanur», degan so‘zlarida teran haqiqat mujassam. Darhaqiqat, odamzot qalbidagi jamiki olijanob fazilatlar ona tilining betakror mo‘’jizasi, sehri va jozibasi bilan kamolga yetadi.

Xalqimiz tafakkurining tiniq ko‘zgusi bo‘lgan bu bebaho xazinani asrab-avaylash va rivojlantirish bugungi kundagi eng sharafli vazifalarimizdan biridir. [Shavkat Mirziyoyev 21 oktabr — O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan tabrigidan]

Avvalgi onatili darsliklari tilningtuzilishiga oidtizimliqoidalar vabuqoidalarning yod olinishini ta’minlovchi mashqlardan iborat edi.Yangi darsliklarda esa faqat grammatik qoidalr bilan cheklanib qolmadik.Yangi darslikda quyidagi o‘zgarishlar bo‘ldi:

1. Darsning (yoki darslar ketma-ketligidan iborat mavzuning) asosiy o‘zagini avvalgidek grammatik qoida emas, balki matn tashkil etadi. Matnlar mavzu, uslub (badiiy, axborot, publitsistik, ilmiy-

ommabop va boshqalar) hamda shakl (to‘liq matn, infografika, jadvallar, diagrammalar va boshqalar) jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin.

2. Mashqlar matn asosida tuzilgan va o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan:

—matnni tushunish ko‘nikmalari;

—matn yaratish ko‘nikmalari (yozma yoki og‘zaki);
—tanqidiy va ijodiy fikrlash, shuningdek, tadqiqotchilik ko‘nikmalari;
—til qoidalarini o‘zlashtirish;

3. O‘rganiladigan til qoidalari tizimli tarzda (fonetika valeksikologiyadan morfologiya, sintaksis va uslubiyatgacha) emas, balki matnlar asosida (matnda uchrashiga qarab) beriladi. Aksariyat hollarda qoidalar ixcham, ortiqcha terminologiyadan xoli tarzda beriladi.

Ona tili bo‘yicha milliy darsliklarda ustun bo‘lgan tilning tuzilishini (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika) izchil o‘rganish tilshunoslik bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar uchun zarurdir. Biroq tilshunos kadrlar tayyorlash umumta’lim maktabining vazifasi emas. Maktabdagi tilta’limining (ona tili va boshqa tillarning) vazifasi o‘quvchini turli muloqot vaziyatlarida tildan to‘g‘ri va samarali foydalanishga o‘rgatishdir. Buning uchun o‘quvchi quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

—hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan og‘zaki, yozma va vizual matnlarning har xil turlarini tushunish;

—o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazish uchun matnlar (og‘zaki, yozma, vizual) yaratish va dialogda (polilogda) qatnashish;

—axborotni qidirish, topish, solishtirish va tahlil qilish.

Darslar kommunikativ mavzu asosida qurilgan bo‘lib, uning asosida tegishli daraja uchun leksika va grammatikasi mos bo‘lgan matn (dialog) tanlanadi. Ushbu matn til ko‘nikmalarini (o‘qilgan yoki eshitilgan matnni tushunish, og‘zaki yoki yozma muloqot) rivojlantirish hamda leksika va grammatikani o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.Darsliklar o‘zgarishinisoha pedagoglarining fikrlari bilan davom ettiramiz. Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Jizzax shahar 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Dilafruz Bobojonova shunday deydi: "Ancha yillardan buyon ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelaman. Bu yil yangilangan darsliklar haqiqatdan ham ancha o‘zgargan. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, har bir narsani to‘g‘ri qabul qilishga moslashtirilgan topshiriqlar xuddi maktab bolasi tomonidan o‘ylab chiqilgandek, ularning yoshiga juda mos. Ona tili darsliklarida ham qoidalardan ancha voz kechilgan. Buni men o‘qituvchi sifatida to‘g‘ri deb o‘ylayman. Sababi biz har yili butun bir xalq ta’limidan faqat filolog yoki tilshunos chiqarmaymiz.Zotan, bundayiqtidorlarnikashfetuvchiijodmaktablari ochilgan. Bizo‘quvchilargahayotidakerakbo‘ladigannarsalarnio‘rgatishimizkerak.

Yangidarsliklaresaxuddiko‘nglimdagidek,o‘quvchidaaynanshujihatlarni shakllantirishgaxizmatqiladi".

Haqiqatdan ham yangi darsliklar faqat tilshunoslarni yetkazib bermaydi. Yangi darsliklar mazmuniga ko‘ra o‘rta ta’limni olgan har bir o‘quvchi hayotda o‘z o‘rnini egallab ketishi va o‘rgangan bilimlarini hayoti davomida qo‘llab bilishi lozim. Shu sababli ham yangi darsliklarning asosiy mohiyati shularni qamrab oladi. Yangi o‘quv darsliklari xalqaro miqyosda o‘rganilib tuzib chiqilgan, ona tili darslarida rivojlantiriladi. Yangi ona tili darsliklarida bu holat ham e’tiborga olingan.

Endi esa 7 -sinf darsligi bo‘yicha bo‘limlar va ular yuzasidan berilgan mashqlar tahlili bilan tanishib chiqsak:

1-mavzu: Ijtimoiy tarmoqlar bo‘lib bu mavzuda berilgan mashq va topshiriqlar orqali olinma so‘zlar, ijtimoiy tarmoqlar va ularga doir ko‘rsatmalar yuzasidan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lamiz. Bundan tashqari diagramma bilan ishlash salohiyatiga ham ega bo‘lamiz. Diagramma shaklidagi axborotlarni matn ko‘rinishida yozish kabi mashqlar bor. Bu mavzu orqali o‘quvchilar internet tarmoqlaridagi yozishmalarda to‘g‘ri yozish qoidalariga rioya qilishligini keyin muloqot madaniyati ham o‘rganadi.

2-mavzu: Zamonamiz qahramonlari bo‘lib bu mavzuda grammatikaga doir mashqlar berilgan. Fe'llarning munosabat shakllari, zamon, shaxs-son qo‘shimchalari va esse yozish kabilarni o‘rganadi. Bu mavzu orqali nafaqat grammatik bilimlarga balki hayotda yuz beradigan voqea hodisalarga doir bilimlarni ham shakllantiradi. Zamona qahramonlari tanishi bilan birga ularga o‘xshagan qahramonlar bo‘lib yetishishga chorlaydi.

3-mavzu: Turon yo‘lbarsi bu mavzuda o‘quvchilarning atrof muhitga befarq bo‘lmasligi hayotimizning bir bo‘lagini tabiat tashkil etishi unda bo‘ladigan o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishi kerakligi bilan bir qatorda shunga bog‘liq matnlar orqali olmosh so‘z turkumi, fe‘llarning munosabat shakllari, matn yaratish kabi bilimlarga ega bo‘ladi.

4-mavzu: C vitamini bu mavzu ham bevosita hayotimiz bilan bog‘liq. O‘quvchilar sog‘ligi bilan bog‘liq dastlabkiko‘nikmalarni ham shakllantirib ketadi. Bu mavzuda infografikaga doir bilimlar,sifatlar, miqdor va tartib sonlar yuzasidan ham bilimlarini mustahkamlab oladi.

2022-yilda nashr qilingan 7-sinf uchun “Ona tili” darsligida grafik orqali ifodalangan ma’lumotni tushunishga qaratilgan mashq.

Nutq fikrdan hosil bo‘ladi: fikr bo‘lmasa, nutqni ham rivojlantirish imkonsiz. “Kesimning tagiga chizing”, “aniqlovchining turini aniqlang” qabilidagi mashqlar til strukturasini o‘rgatish uchun balki qulaydir, lekin ular yordamida fikrlashni rivojlantirish imkonsiz. Yangi avlod darsliklaridagi matnlar va matnlar asosidagi savol va topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyihalar o‘quvchilarni fikrlash, mushohada yuritish,o‘zlarini o‘rab turgan voqelikka nisbatan faol munosabatda bo‘lishga chorlaydi

Xulosa shuki yangi darsliklar faqat grammatik qoidalar va ularga doir bilimlar bilan cheklanib qolmasdan hayotda qo‘llab bo‘ladigan zarur ko‘nikmalarni ham shakllantirishga qaratilgan. Faqat

o‘quvchilarda grammatik bilimlarni egallashga emas, ularning nutqini o‘stirishga, hayotga zarur bo‘lgan, har bir sohaga oid dastlabki ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga ham qaratilgan. O‘quchilarning zerikib qolmasligi uchun qiziqarli matnlar ham berib borilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Ona tili. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.To‘la yangilangan 5-nashri. Toshkent-2022. – 224 b.)

**2.** Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun Ona tilidan o‘qituvchi kitobi. Yangi nashr.Toshkent-2022.224 b.

3. Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlari. -T, 2017

4.O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati.(AzimXojiyev.Universitetlarning va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo’llanma. “O’qituvchi” nashriyoti. Toshkent – 1974. – 295.300 b.)

5.O’zbek tilining izohli lug’ati. (A.Begmatov, A.P.Madvaliyev, N.M.Mahmudov. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. “Akademnashr”. Toshkent– 2006-2008.)

6. O’zbek tilining imlo lug’ati. (E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev, N.M.Mahmudov. imlolig’ati. “Akademnashr”. Toshkent – 1976).

7. http://kompy.info/pars_docs/refs/32/31127/31127.pdf. [ 25-30-betlar ]

8. https://lex.uz/docs/-3153714.